



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

4/2024



4/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 4, aprel

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'loqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qurvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nurova Y.U.	O'zbek xalq paremalaridagi etnonimlarda omonimik munosabat	127
Jumayeva O.I.	Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida emotsionallik konseptlarining ifodalanishi ("Baxt" va xursandchilik" konseptlari misolida)	131
Ahmedova D.B.	Jahon va o'zbek leksikografiyasida maxsus lingvistik lug'atlar, ulardan semantik kengaytmada foydalanish imkoniyatlari	136
Саидкулова М.С.	Роль структуры жанра в разграничении функциональных стилей современного русского языка	140
Hikmatova A.Q.	Simile and its characteristic features in English and Uzbek languages	147
Abulova Z.A.	"Ikki eshik orasi" romanida paremalarning tutgan o'rmi	151
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Doniyorova M.T.	Adabiyotshunoslikda uslub tushunchasi	155
Haqberdieva G.H.	Differentiation of proverbs and sayings in Uzbek and English languages	159
Maxmudova M.M.	Y.V.Gyotening "G'arb-u Sharq" devoni tarjimalariga xos xususiyatlar (S.S.Buxoriy va M.Shayxzoda tarjimalari asosida)	165
Nodirova F.X.	Sa'dulla Hakim she'rlarida xalqona ohanglar	169
Norova M.B.	Dunyo va o'zbek adabiyotshunosligida ramz tadqiqi	173
Kasimova R.R., O'roqova M.O'.	Artur Konan Doylning ingliz adabiyotida tutgan o'rmi	177
Rakhimova Sh.R.	Fragmented narratives and consciousness streams: the study of modernist techniques in contemporary literature	181
Safarova Sh.A.	"Hayrat-ul Abror" dostonidagi munajat boblarining manbalari va badiiyati	186
Кодирова З.Б.	Этапы развития детской британской литературы	190
Очилова Д.С., Хамдамова С.Б.	Взаимодействие традиций и инноваций в современной американской поэзии	194
Axmatov A.H.	Ikkinchi jahon urushining adabiy muhitga ta'siri	198
Namroyeva S.B.	The impact of colonialism on indigenous cultures in Thomas King's "Green grass, running water"	202
Khajieva F.M.	Exploring Gerard Genette's theory of transtextuality	206
Буранова Ж.А.	Мифологические мотивы в творчестве Чингиза Айтматова и у современных татарских литераторов	214
Sodiqova D.T.	Muslihabegim Miskinning badiiy san'atlardan foydalanishdagi shoirlilik mahorati	219
Hikmatova A.Q.	Descending into wonderland: the rabbit hole as a portal to altered states of consciousness and reality in Lewis Carroll's	225

MUSLIHABEGIM MISKINNING BADIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISHDAGI
SHOIRLIK MAHORATI

Sodiqova Dilorom Tursunovna,

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi, f.f.f.d(PhD)

sodiqovadilorom1@gmail.com

ORSID: 0009-0000-9567-2528

Annotatsiya. Adabiy asarlarda badiiy san'atlardan foydalanish shoirming badiiy mahoratini namoyon etadigan vositalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan she'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslanadi. Maqolada shoira she'riyati tahlili orqali uning istiora, tashbih, tansiq us-sifat kabi badiiy san'atlardan kengroq foydalanganligi, mazkur san'atlar shoira nazmiy asarlaridagi jozibadorlikni, ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qilishi kabi xususiyatlar tahlilga tortilgan. Muslihabegim nazmiy asarlarida, asosan, ma'naviy san'atlarga murojaat qilganligi hamda shoira tomonidan qo'llanilgan istiora san'atining muhim ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: shariyat, badiiy san'at, ma'naviy san'at, lafziy san'at, lirik qahramon, g'azal, ruboiy, masnaviy, mukhammas, musaddas, mustazod, istiora, tashbih, tansiq-us-sifat, mubolag'a.

ПОЭТИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ХУДОЖЕСТВЕННОГО
ИСКУССТВА МУСЛИХАБЕГИМ МИСКИН

Аннотация. Использование художественных приёмов в литературных произведениях считается одним из средств проявления художественного мастерства поэта. С этой точки зрения поэтическое искусство основано на определённых художественных принципах. В статье на основе анализа поэзии поэтессы выявлены такие особенности, как широкое использование ею таких художественных искусств, как аллегория, уподобление, аллитерация, а также то, что эти искусства служат обеспечению привлекательности и впечатляемости поэтических произведений поэтессы. В статье говорится, что поэтические произведения Муслихабегим в основном относятся к духовному искусству, и подчёркивается важность искусства метафоры, используемого поэтессой.

Ключевые слова: поэзия, художественное искусство, духовное искусство, словесное искусство, лирический герой, газель, рубаи, маснави, мухамас, мусаддас, мустазад, аллегория, уподобление, аллитерация, преувеличение.

POETIC CRAFTSMANSHIP USING THE ARTISTRY OF MUSLIHABEGIM MISKIN

Abstract. The use of artistic arts in literary works is considered one of the means of showing the artistic skill of the poet. From this point of view, poetic arts are based on certain artistic principles. In the article, through the analysis of the poetess's poetry, the features such as her extensive use of artistic arts such as allegory, alliteration, and the fact that these arts serve to ensure the attractiveness and impressiveness of the poetic works of the poet are analyzed. It is said that Muslihabegim mainly refers to spiritual arts in her poetic works and the importance of the art of metaphor used by the poetess.

Keywords: poetry, artistic art, spiritual art, verbal art, lyrical hero, ghazal, rubai, masnavi, mukhamas, musaddas, mustazad, allegory, tashbih, tansiq-us-sifat, exaggeration.

Kirish. Sharq she'riyatining eng muhim masalalaridan biri badiiy san'atlar sanaladi. Haqiqatan ham, she'riy asarning jozibadorligi va ta'sirchanligini she'riy san'atlar ta'minlaydi. Bu san'atlar haqida o'tmishda maxsus asarlar yaratilgan bo'lib, ular bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. «Funun ul-balog'a» asari muallifi Shayx Ahmad Taroziy bu san'at (sanoye'-ush-she'r)ni fasohat va balog'at egalari orasida g'oyat mo'tabar ekanligini ta'kidlaydi[1;19]. Aynan badiiy san'atlarga bag'ishlab yaratilgan asarlar sirasiga Atoulloh Husayniyning «Badoyi' us-sanoyi'» asarini ham kiritish mumkin. Bu asarning ilmiy qimmatini eng avvalo shundaki, unda adabiyotshunos Sharq xalqlarining namtoz she'riyatida uchraydigan ikki yuz yigirmadan ortiq san'at turlarini aniqlashi bilan birga ulami lafziy, ma'naviy va lafzi-yu ma'naviy kabi uch yo'nalish tarzida tasnif etadi.

Maʼlumki, sheʼriy sanʼatlar badiiy asardan oʻrin olgan gʻoyalarning hayotiyroq, taʼsirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozbadorligini taʼminlashga xizmat qilgan. Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, sheʼriy sanʼatlar shoir badiiy salohiyatini koʻz-koʻz qilish, uning xilma-xil sanʼatlardan mohirona foydalanish sanʼati usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining koʻlami, yuksak ijtimoiy-axloqiy gʻoyalarni jilolantirish sanʼatkorligi ifodasi boʻlib kelgan [2;4].

Zullisonayn shoira Muslihabegim Miskin ham gʻazal, ruboiy, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod, tarjeʼband, va sheʼriy hikoyatlarida badiiy sanʼatlardan umumli foydalangan. Istiora, tashbeh tansiq us-sifat namuntaz ijodkorlar asarlarida kuzatilgan singari [3; 216], shoira ijodida eng koʻp murojaat etilgan badiiy sanʼatlar sirasiga kiradi.

Istiora maʼnaviy sanʼatlar qatoriga kiradi. U arabcha soʻz boʻlib, «biron narsani omonatga olmoq» («vaqtincha olmoq») degan maʼnoni ifodalab, adabiy asarda soʻzni oʻz maʼnosidan boshqa bir maʼnoda, aniqrogʻi, uni haqiqiy maʼnoda emas, balki majoziy bir maʼnoda qoʻllash sanʼati sanaladi [4;53]. Tuzilishiga koʻra bir soʻzdan yoki iboradan tashkil topgan istiora sodda istiora, birikmali istioralar esa murakkab istiora sanaladi. «Sanʼathoyi badehi dar sheʼri tojiki» kitobida taʼkidlanishicha, istiora adabiyotda majozning bir koʻrinishi boʻlib, biror soʻzning oʻrniga boshqa soʻz ishlatishdir. Istiora tashbih sanʼatiga yaqin turadi. Shu bois bu ikki badiiy sanʼat sheʼriy asarlarida bir-birini toʻldirish maqsadida koʻpincha bayt yoki misralarda yondosh qoʻllanadi.

Asosiy qism. Maʼnaviy sanʼatlar sirasiga mansub boʻlgan tansiq us-sifotning oʻziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon boʻladi: «...shoir yoki adib bir baytda yoki jumlada tasvir obyekti boʻlgan biron buyum yoki shaxsga xos boʻlgan bir necha xususiyatni, unga nisbat berilgan sifatlarni paydar-pay sanab koʻrsatadi. Tasvir qilinayotgan shaxs yoki buyumning ayrim jihatlarini chuqurroq ochishga qaratilgan bunday tasvir uchun jalb etilgan sifat, xususiyatlar hamjins boʻlib, tasvir obʼektining muayyan tomonini kengroq izohlash, uni boʻrttirib koʻrsatishga xizmat qiladi.

Tansiq us-sifot oʻzining ichki xususiyatlariga koʻra badiiy tasvirning muhim vositalaridan boʻlmish tashbih va mubolagʻa sanʼatlari bilan maʼlum darajada bogʻlangan» [4;73]. Ushbu tasviriy vositalardan badiiy kashfiyotlar yaratish ijodkordan favqulotda topqirlikni talab etadi. Masalaning ayni jihatiga koʻra Muslihabegim Miskin sheʼriyatini nazardan oʻtkazib, uning badiiy mahoratiga baho berishga harakat qilamiz. Shoira yetti baytli «Kard moro» («Qildi bizni») radifli gʻazali aytilganlar nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir:

*Ki soʻzi otashi ishq chumon devona kard moro,
Ki anvori jamolash ham chumon mastona kard moro.
Chumon monandi Layli dar firoqash dar badar gashtam,
Chumon monandi Majnun dar biyobon xona kard moro.
Misoli Yusufi Misriy yak rax az parda bekushoyad,
Ba monandi Zulayxo ham chumon afsona kard moro.
Shavan devona-yu shaydo az ishqat man rasvo,
Ba girdi shamʼi roʻyash pashshayi parvona kard moro.
Nadoram toqati bo yodi ruxsorash dar in olam,
Chumon maxmur doim bar dar mayxona kard moro.
Zi ishqash doimo dar koʻh-u sahro dar badar gashtam,
Ba yodi shamʼi roʻyash oshiqi devona kard moro.
Ayo Miskin, zi ishq u hama Devona-yu shaydo,
Dar in jo doimo az furqatash afsona kard moro [5; 28^a varaq].*

Mazmuni: *Ishq otashida kayish bizni chumonam devona qildi, jamoli nuri ham bizni chumon mastona qildi. Uning firoqida Layli misol darbadar kezdim, goʻyo Majnunga oʻxshab biyobonda bizni xonali qildi. Yusufi Misriy kabi pardadan bir jamolini koʻrsatsa, Zulayhoga oʻxshab bizni ham afsona qildi. Sening ishqingda men rasvo, devona-yu shaydo boʻlay desam, sham yuzi atrofida bizni parvona pashshaga aylantirdi. Bu olamda uning ruxsori yodiga toqattim yoʻqdir, bizni mayxonada doim maxmur (may xumori) qildi. Togʻ-u sahroda uning ishq bilan doimo darbadar yurdim, bizni sham yuzi hajrida oshiqi devona qildi. Ayo Miskin, uning ishqida hamma devonayu shaydo, furqatidan bizni doim bu yerda afsona qildi.*

Gʻazal hazaji nusammani solim (maʼfoiylun maʼfoiylun maʼfoiylun maʼfoiylun) vaznida yozilgan boʻlib, «devona», «mastona», «xona», «afsona», «parvona», «mayxona» soʻzlari qofiyadoshlikni hosil qilib, oʻziga xos ritmi hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etgan. Gʻazalning matlaʼsi uning jozibadorligini taʼminlashda muhim poetik funktsiya bajargan. Ayniqsa undagi «Ki soʻzi otashi ishq» («Ishq otashida kayish») va «Ki anvori jamolash» («Jamolining mirlari») yopiq yoki istiorai izofiy [4;23] deb ataluvchi

istoralar lirik qahramonning holini ifodalash imkonini yaratgan. G'azal shoira ijodida kam uchrovchi oshiqona ruhda yozilgan. Ishqqa otashni nisbatlash, jamol – yuzga nisbatan nurlarni qo'llash shoiraga ishqning nihoyatda harorali ekanligi-yu, vasf etilayotgan seviklini ilohiy mazhar sifatida tasvirlash imkonini hosil qilgan. Ta'kidlash lozimki, g'azalning radifi oshiqni yagona emas, bir necha kishi yoki muayyan guruh kishilari sifatida tasvirlash imkonini hosil qilgan. Shu bois ishqdan devona bo'lgan va vasf etilayotgan ma'shuqaning nurlu yuzidan mastona bo'lgan kishilar, Ahmad Yassaviy hikmatlarida kuzatilgani singari diydortalablardir. G'azaldagi umumlashgan obraz – ma'shuqani Alloh sevikli rasuli Muhammad (a.s.) tarzida tushunish mumkin. U ilohiy mazhar sifatida tasvirlanib, uning vositasida Allohga bo'lgan muhabbat badiiy tasvirlanadi. Matla'da qo'llangan yopiq istoralar keyingi olti baytda shoira uchun nihoyatda chiroyli, ba'zan badiiy kashfiyotlar darajasiga ko'tarilgan tashbehlarni hosil qilishga imkon yaratgan.

Ta'kidlash lozimki, shoira g'azaliyotida an'anaviy adabiy qahramonlarni lirik qahramon yoki oshiq'larga qiyoslab, talmehdan tashbih hosil qilish uslubi keng qo'llanilgani bilan ajralib turadi. Tahlil etilayotgan g'azalda ham lirik qahramon o'zini seviklisi firoqida darbadar kezuvchi Layliga qiyoslash bilan kifoyalannmay, o'zi singari oshiq'larni ishq otashida kuygani bois Majnunmisol dashtda xona qurib, o'sha muqim turuvchiga o'xshatadi. Bunday tashbihlar vositasida an'naviy qahramonlar obrazlariga xos syujet she'rxon ko'z o'ngida gavdalanib, hissiy ta'sirchanlik oshiriladi. Ayniqsa, shoira Yusuf va Zulayho ishqiy sarguzashtlariga oid badiiy lavhalardan kelib chiqib, g'azaldagi ma'shuqani Yusufi Misriy kabi parda ortidan jamolini ko'rsatganining badiiy tasvirini oshiq'larni Zulayhoga monand devona qilishi badiiy lavhasi bilan tadrijiy rivojlantirishi uning o'ziga xos topqirliqi sifatida namoyon bo'ladi.

G'azaldagi ishq otashida kuyish istiorasi shoiraga oshiq'larni jumunvor holatda tasvirlash imkonini hosil qilgan. Unda ma'shuqa shamga qiyoslanib, uning yuziga shaydo bo'lgan oshiq'larni parvona pashshasiga, bu dunyoda sevikli nurlu yuzining yodi bilan yashashga toqat qilomagan oshiq'larning mayxonadagi maxmur – mastligi tarqalmagan rindlarga o'xshatilishi ijodkorning bu borada chinakam mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Muslihabegim Miskin Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun singari an'anaviy adabiy qahramonlar bilan bog'liq badiiy lavhalarga tez-tez murojaat qilib, lirik qahramonni talme qilingan qahramonlarga o'xshatish bilan badiiy jihatdan barkamol baytlar yarata olgan. Oldingi bobda tahlil jarayoniga tortilgan shoira «Ey shoh, mani vola-yu shaydo qiladursan» satri bilan boshlanuvchi olti baytli g'azalida ham ayni holat kuzatiladi. Shoira umumlashtiruvchi mazmunga ega «ey shoh» istiorasi vositasida «Majnun kabi man cho'l-u biyobonni kezibon, Doim mani jo'yandayi Laylo qiladursan» o'z holi bilan Sharqda mashhur bu sevizhganlar obrazi o'rtasida uyg'unlik topa oladi. Bu holat shoira tojik tilida bitilgan g'azallarida ham kuzatiladi. Muslihabegim Miskinning «Zi ishq shahi barno devona shudam shaydo» («Barno shohning ishqidan devonayu shaydo bo'ldim») satrlari bilan boshlanuvchi g'azalida shunday tashbihning go'zal namunasi yaratilgan:

Zi ishq shahi barno devona shudam shaydo,

Majnun sifat az ishqash raftam ba biyobonho.

Layli zi firoqi o', doim ba so'rog'i o',

Hastam ba dog'i u devona shuda shaydo. « [5; 28^h varaq]

Mazmuni. Shohi barnoning ishqida devona-yu shaydo bo'lib, Majnunsifat biyobonga ketdim. Layli uning firog'ida, doimo uning so'rog'ida, uning dog'ida devona-yu shaydoman.

Ushbu g'azalda «barno shoh» istiorasi ma'shuqa ma'nosini ifodalab turibdi. Bundan shoira maqsadi Muhammad (a.s.)ni vasf etish ekanligini sezish mumkin. G'azalda ilohiy mazhar vositasida ilohiy ishq tarannum etilgan. Lirik qahramon ilohiy mazhar vositasida Alloh ishqida Majnundek biyobonlarni kezadi, Layli kabi uning firog'ida devona-yu shaydo bo'ladi. Har ikkala baytda ham talme san'ati mavjud. Shu bilan birga, lirik qahramon o'z holatini Majnun va Layliga o'xshatadi. Bu esa esa tashbih san'atining yorqin namunasi. Xususan, g'azalning ikkinchi baytida musajja' badiiy san'atining qo'llanganligi uning ta'sir doirasini yanada oshirishga zamin hozirlagan.

Muslihabegim Miskin tansiq us-sifat badiiy san'atidan ham mahorat bilan foydalana oladi. Uning quyidagi baytda lirik qahramon holiga xos sifatlar birin-ketin qatorlashtirilgan bo'lib, mubolag'aviy tasvir va o'ziga xos ohangdorlikni hosil qilgan. Uning o'ziga xos ohangdorligini, yuqorida tahlil qilingan baytda kuzatilgani singari, saj'li qofiyalar ham ta'minlashga muhim rol o'ynagan:

Man zor dil afgoram, az ishq tu bemoram,

Bo diydayi xun boram az ishq tu man rasvo.

Mazmuni: Zoru dilafgorman, ishqida bemorman, men rasvo sening ishqingda qonli ko'zyosh to'kaman.

Lirik qahramonning dilafgorligi, ma'shuqa ishqida bemorligi, qonli ko'z yoshlari va ishqda rasvoligi unga munosib ko'rilgan sifatlar bo'lib, bu sifatlar bilan u she'rxon ko'z o'ngida ishqdan zada bo'lgan oshiq sifatida gavdalanadi.

Muslihabegim Miskin istiora, tashbih qo'llangan g'azallarida tansiq us-sifotlarni ham, ushbu badiiy san'atga xos xususiyatdan kelib chiqib, qatorlashtirib qo'llaydi va bu bilan she'rning o'ziga xos ohangini hamda mubolag'aviy tasvirlarni yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shoiraning «Dargohingga bir ojiz-u nolon keladurman» satri bilan boshlanuvchi g'azalida tansiq us-sifotlarning qofiya vazifasida ham qo'llangani ularning ta'sir kuchini yanada oshirilishiga bois bo'lgan:

Dargohingga bir ojiz-u nolon keladurman,
Dilxasta-yu, hayron-u parishon keladurman.
Umrinmi qilib sarf bu g'afolat bila doim,
Umid bila, ey shahi davron, keladurman.
Bu dardi fanog'a bo'libon zori giriftor,
Pobasta ul zulfi parishon keladurman.
Monandi bulbul bo'libon navha qilibon,
Shaydo bo'libon sayri guliston keladurman.
Zori(yu) tavallo qiladur Miskini hayron,
Bir marhamat aylagingki, parishon keladurman.

Besh baytli ushbu g'azalning «*ojiz-u nolon*», «*hayron-u parishon*», «*ey shahi davron*», «*zulfi parishon*» «*sayri guliston*», «*parishon*» singari qofiyalanishini hosil qiluvchi so'z, juft so'z, izofalardan to'rttasi: «*ojiz-u nolon*», «*hayron-u parishon*», «*zulfi parishon*» va «*parishon*» tansiq us-sifot va sifatlashlar bo'lib, ularning, ayniqsa, juft so'z va izofa holda qo'llanilgani ham ohangdorlikni ta'minlash muqtayi nazaridan, ham lirik qahramon holimi mubolag'aviy tasvirlash muhim ahamiyat kasb etgan. G'azaldagi «*ey shahi davron*» yopiq istiorasi umumlashma obraz bo'lib, undan shoira she'riyatiga ham Muhammad (a.s.) vasfi nazarda tutilganini sezish mumkin. Ushbu g'azalda lirik qahramonning bulbulga qiyoslanishi ham shoira adabiy niyatini mubolag'aviy tasvirlashga zamin yaratgan.

Muslihabegim Miskin musammatlar ijod etishda ham mahoratli shoira sanaladi. Ayniqsa, uning eng noyob ko'rinishi yetti bandli, oltmish uch misradan tarkib topgan mustasne' janri shoira devonidagina kuzatish mumkin. «*Ey dilbaronro dilbari*» satri bilan boshlanuvchi rajazi murabba'yi solim (mustafilun mustafilun) vaznida yozilgan ushbu mustasne'da istiora, tashbih va tansiq us-sifotning nihoyatda noyob ko'rinishlarini uchratish mumkin. Mustasne' payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning vasfiga bag'ishlangan bo'lib, uning dastlabki bandidanoq tansiq us-sifotlarning istioralashuviga keng o'rin berilgani shoira badiiy mahoratining bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Ey dilbaronro dilbari,
Ey sarvaronro sarvari,
Ey gumrahonro rahbari,
Har jumlagi toji sari,
Ham afzali payg'ambari,
Bar anbiyo sardaftari,
Shohanshahi bahr-u barri,
Bar so'yi moyon benigari,
Ey xojayi har du saro [6; 26 v. varaq].

Mustasne'ning ushbu dastlabki baytida kuzatilgani singari uning keyingi baytlarida ham o'zbek va tojik tilida so'zlashuvchilar uchun umumiy bo'lgan so'z va izofalar qo'llangani bois ushbu she'rni o'zbek tilidagi tarjimasiga u qadar ehtiyoj sezilmaydi. Boshlanma bandda to'rt o'rinda «*Ey*» undovi bilan boshqa o'rnlarda esa unga ehtiyoj sezilmagan holda mustasne'da vasf etiluvchi qahramonning sifatlari istioralashgan tansiq us-sifotlari qatorlashtiriladi. «*Dilbarlarning dilbari*», «*Sarvarlarning sarvari*», «*Gumrohlarning rahbari*», «*Barchaning boshidagi toj*» singari istioralashgan tansiq us-sifotlarda vasf etilayotgan manzur umumiylik kasb etadi. Bular orasida «*Gumrohlarning rahbari*»da masalaning mohiyati birmuncha ochilgandek bo'ladi. «*Payg'ambarlar afzali*», «*Anbiyolar sardaftari*»da sifatlari qatorlashtirilgan obrazning Muhammad (a.s.) ekanligi ayonlashib qoladi. Shu tarzda payg'ambar (a.s.)ning «*Quruqlik va dengizning shahonshohi*» ekanligi kabilar vasf etiladi. Shoiraning Muhammad (a.s.)ga munosib ko'rilgan o'nga yaqin sifatlarning istioralashirilgan holda qo'llashi va ularning bari undalmalar bo'lib, mustasne' bandida ta'didni hosil qilishi asarning o'ziga xos ohangdorlik kasb etishiga zamin hozirlagan. Ushbu bandning o'ziyoq shoiraning istiora va tansiq-us-sifotdan mahorat bilan foydalana olishiga dalil bo'la oladi.

LITERARY CRITICISM

Mustasne'ning keyingi bandida vasf etiluvchi obraz bilan lirik qahramonning suyuqli mahbubi ekanligi badiiy talqinida ham istioralashirilgan tansiq us-sifotlardan foydalaniladi:

Ey dilbari dildori man,
Ey ma'dani asrori man,
Ey munis-u g'amxori man,
Dar du jahon tu yori man,
Benigar ba holi zori man,
Ey voqifi asrori man,
Ey sayyidi asrori man,
Ey Ahmadi Muxtori man,

Nomat Muhammad Mustafu [6; 26^a-26^b varaq].

Ushbu bandida ham «Ey» undovi she'rxon yoki tinglovchini shoira fikrlariga diqqatni qaratish vazifasida to'rt marta qo'llangan. Undagi istioralashgan sifatlarga I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi yordamida lirik qahramonga yaqinlik ma'nosi badiiy talqin etilgan. «*Dildorimning dilbari*», «*Sirlarimning ma'dani*», «*Mening g'amxo'ri munisim*», «*Sirlarimning voqifi*» singari sifatlarning istioralashuvi dastlabki bandida tasvir va ohangdorlikni badiiy rivojlantirilishiga omil bo'lgan. Shoiraning «In ummatoni xeshro rahmi beku, ey sarvi bog'...» misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g'azalida istiorai izofiyning radif sifatida qo'llanganligi ham diqqatni vasf etiluvchi obrazga qaratishi nuqtai nazaridan e'tiborlidir:

In ummatoni xeshro rahmi beku, ey sarvi bog',
In osiyoni xeshro rahmi beku, ey sarvi bog' [5; 34^a varaq]

Mazmuni: Ey bog'ning sarvi, yaqin ummatlarining rahm etgil, Ey bog'ning sarvi, gunohkor yaqinlarining rahm etgil.

Baytdagi «*sarvi bog'*» so'zi o'z ma'nosida qo'llanilayotgani yo'q, ya'ni shoira «*sarvi bog'*» so'zini Muhammad (a.s.)ning istioralashgan obrazi ma'nosida qo'llaganini anglash mumkin. Bu istioraning muhim jihati shundaki, undagi «*bog'*» – har ilki olamni, «*sarv*» esa doimo yashnab turuvchi, salobati bilan alohidalik kasb etuvchi Muhammad (a.s.)ni eslatadi. Dunyoda nabiyalar soni mingdan oshiq ekanligi aytib o'tiladi. Undagi sarv esa yagonaligi bilan ajralib turadi. Yuqorida tahlilda tortilgan mustasne' o'ziga xos ta'kid ohangining ustuvorligi bilan ajralib turadi. Bunday ohangni shoira istioralashgan tansiq us-sifotlar bilan bir qatorda tashbehi mo'kad – ta'kidlangan tashbih bilan ham hosil qiladi. Bunda o'xshatish vositalari (yordamchi so'zlar –dek qo'shimchasi) ishlatilmaydi, balki o'xshatilgan va o'xshagan narsa hukmu mahkum (ega+ot-kesim) tarzida keladi [4;88]:

Mahbubi on Subhon tuyi,
On lola-yu rayhon tuyi,
On bulbuli xushxon tuyi,
Ham bog'-u ham bo'ston tuyi,
On jannati ixvon tuyi,
Ham hur-u ham g'ilmon tuyi,
Payg'ambari moyon tuyi,
Ey munis-u jonon tuyi,
Ey podshohi lo fato [6; 26^b-27^a varaq].

Bandida qo'llangan tashbihi mo'kadlarda o'xshatilgan bir necha bo'lib, ularga o'xshagan sifatida Payg'ambar (a.s.) nazarda tutilgan «*sen*» olmoshi keltirilgan. Shoira tashbehi mo'kad sifatida quyidagi o'xshatishlarni Muhammad (a.s.) nisbatan qo'llaydi: U Subhonning mahbubi – sen, U lola-yu rayhon – sen, U xushxon bulbul – sen, ham bog'-u, ham bo'ston – sen. U jannatning suyanchig'i – sen. Ham hur-u, ham g'ilmon –sen.

Xulosa. Kuzatishlardan ayon bo'ladiki, istiora, tashbih va tansiq us-sifot singari badiiy tasvir vositalari eng ko'p qo'llanuvchi ma'naviy san'atlar guruhiga mansub bo'lib, ulardan badiiy kashfiyotlar yaratish ijodkordan favqulotda topqirlikni talab etadi. Shoiraning yetti baytli «*Kard moro*» («*Qildi bizni*») radifli g'azalidagi «*Ki so'zi otashi ishqe*» («*Ishq otashida kuyish*») va «*Ki anvori jamolash*» («*Jamolining nurlari*») yopiq yoki istiorayi izofiy deb ataluvchi istioralar Muslihabegimga lirik qahramonning holini ifodalash imkonini yaratadi, an'anaviy adabiy qahramonlarni lirik qahramon yoki oshiqqlarga qiyoslab, talmehdan tashbih hosil qilish uslubi shoira g'azallarida keng qo'llaniladi va shu asosda u g'azaldagi ilohiy mazhar – Muhammad alahis-salom vositasida ilohiy ishq badiiy tasvirlashga muvaffaq bo'ladi. Ijodkorning «*Dargohingga bir ojiz-u nolon keladurman*» satri bilan boshlanuvchi g'azalida tansiq us-sifotlarning qofiya vazifasida ham qo'llangani ularning ta'sir kuchini yanada oshirilishiga bois bo'ladi.

LITERARY CRITICISM

Shoiraning Muhammad (a.s.)ga munosib ko'rilgan o'nga yaqin sifatlarining istioralashtirilgan holda qo'llanishi («*Ey dilbaronro dilbari, Ey sarvaronro sarvari, Ey gumrahonro rahbari, Har jumlagi toji sari*) va ularning bari undalmalar bo'lib, mustasne' bandida ta'didni hosil qilishi, shunday ohangdorlik tashbihi mo'kadlar (*Mahbubi on Subhon tuyi, On lola-yu rayhon tuyi, On bulbuli xushxon tuyi, Ham bog'-u, ham bo'ston tuyi*) vositasida ham vujudga keltirilishi uning muhim adabiy mahorati sifatida ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Husayniy A. *Badoyi-us-sanoyi: (Ariz vazni va badiiy vositalar haqida) Fors.. A.Rustamov tarj. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – B.19.*
2. Hojiahmedov A. *Muntaz: badiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999. –B 4.*
3. Eshonqulov H. *Alisher Navoiy g'azaliyotidagi ishq poetikasining qiyosiy-tipologik tahlili. Filologiya fanlari doktori(DSc) dissertatsiyasi. – B.216-235.*
4. Ishaqov Y. *So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: "Zarqalam". –B.73.*
5. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar fondi. Inv.1962. -273b.*
6. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar fondi. Inv.1277. -132b.*
7. Tursumova S. D. *Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg // Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 14.*
8. Sodikova D. T. *Glimpses to feminine literature during the dynasty of bukhara emirate: all about a poetess muslihabegim miskin and her literary heritage //Актуальные проблемы тюркологии: Россия и тюрко-мусульманский мир. – 2021. – С. 174-176.*
9. Sodikova T. D. *Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry // Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 8.*
10. *Содикова Д. Т. Проблески женской литературы во времена династии бухарского эмирата: всё о поэтессе Муслихабегим Мискин и её литературном наследии // ББК 81.632 А43. – С. 174.*